$$v(x+h) = v(x) + hv'(x) + h^2\int_0^1 (1-s)v''(x+sh)ds, \tag{6}$$

$$v(x+h) = v(x) + hv'(x) + \frac{h^2}{2}v''(x) + \frac{h^3}{6}v'''(x) + \frac{h^4}{6}\int_0^1 (1-s)^3 v^{(4)}(x+sh)ds. \tag{7}$$

Bu erda h ni $-h$ ga, s ni $-s$ almashtirib

$$v(x-h)=v(x)-hv'(x)+h^2\int_{-1}^{0}(1+s)v''(x+sh)ds\ , \tag{8}$$

$$v(x-h)=v(x)-hv'(x)+\frac{h^2}{2}v''(x)-\frac{h^3}{6}v'''(x)+\frac{h^4}{6}\int_{-1}^{0}(1+s)^3v^{(4)}(x+sh)ds \tag{9}$$

formulalarni olamiz.

(6), (8) dan quyidagini olamiz

$$v_{\bar{x}x}=\frac{v(x+h)-2v(x)+v(x-h)}{h^2}=\int_{-1}^{1}g_2(s)v''(x+sh)ds\ ,$$

bunda

$$g_2(s)=\begin{cases}1+s & \text{агар} \quad -1\le s\le 0 \quad \text{да}\ ,\\ 1-s & \text{агар} \quad 0\le s\le 1 \quad \text{да}\ .\end{cases}$$

$g_2(s)\ge 0$ bo`lganligidan o`rta qiymat haqidagi teoremadan foydalanish mumkin, natijada

$$v_{\bar{x}x}=v''(x+\theta h)\int_{-1}^{1}g_2(s)ds=v''(x+\theta x)=v''(\xi),\quad -1\le\theta\le 1\ ,$$

bu erda ξ - $[x-h,x+h]$ kesmada o`rta nuqta.

(7) va (9) dan

$$v_{\bar{x}x}=v''(x)+\frac{h^2}{6}\int_{-1}^{1}g_4(s)v^{(4)}(x+sh)ds$$

hosil qilamiz, bu erda

$$g_4(s)=\begin{cases}(1+s)^3 & \text{агар} \quad -1\le s\le 0 \quad \text{да}\ ,\\ (1-s)^3 & \text{агар} \quad 0\le s\le 1 \quad \text{да}\ ,\end{cases}$$

$$\int_{-1}^{1}g_4(s)ds=\frac{1}{2}\ .$$

$g_4(s)\ge 0$ va $v^{(4)}(x)$ uzluksizligidan, o`rta qiymat haqidagi teoremani qo`llab

$$v_{\bar{x}x}=v''(x)+\frac{h^{(4)}}{12}(x+\theta h)\ ,\ |\theta|\le 1$$

ni olamiz va shu bilan lemma isbotlanadi.

<u>4 misol</u>. $Lv=\dfrac{\partial v}{\partial x}-\dfrac{\partial^2 v}{\partial x^2}\ ,\ v=v(x,t)\ .$

(x, t) - tekislikda nuqta bo`lsin. SHablonni aniqlaymiz. U to`rtta nuqtadan tashkil topgan bo`lsin (a rasm).



$L_{h\tau}$ ni quyidagicha aniqlaymiz

$$L_{h\tau}^{(0)} v = \frac{v(x, t+\tau) - v(x,t)}{\tau} - \frac{v(x+h, t) - 2v(x,t) + v(x-h,t)}{h^2}.$$

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz

$$v = v(x,t), \quad \hat{v} = v(x, t+\tau), \quad \check{v} = v(x, t-\tau).$$

Unda

$$v_t = \frac{v(x, t+\tau) - v(x,t)}{\tau} = \frac{\hat{v} - v}{\tau}$$

va

$$L_{h\tau}^{(0)} = v_t - v_{\bar{x}x}. \tag{10}$$

b rasmdagi shablondan foydalanilganda, $t+\tau$ momentda $v_{\bar{x}x}$ olinsa, u holda

$$L_{h\tau}^{(1)} = v_t - \hat{v}_{\bar{x}x}. \tag{11}$$

(10) va (11) larning chiziqli kombinatsiyasini olib, $\sigma \neq 0$ va $\sigma \neq 1$ bo`lganda oltinuqtali shablonda (v rasm) aniqlangan chekli operatorlarning bir parametrli oilasini hosil qilamiz

$$L^{(\sigma)}_{h\tau} v = v_t - \left(\sigma \hat{v}_{\bar{x}x} + (1-\sigma) v_{\bar{x}x}\right). \tag{12}$$

$L^{(0)}_{h\tau}$ operatorlar $L^{(1)}_{h\tau}$ ning approksimatsiya tartibiga ega, (12) esa $\sigma < 0{,}5$ bo`lganda $O\left(h^2 + \tau\right)$, $\sigma = 0{,}5$ bo`lganda $O\left(h^2 + \tau^2\right)$ approksimatsiya tartibiga ega.

<u>5 misol</u>.

$$Lv = \frac{\partial^2 v}{\partial t^2} - \frac{\partial^2 v}{\partial x^2}.$$

Quyidagi shablonlardan foydalanilamiz



Approksimatsiyalardan biri (v rasm)

$$L_{h\tau} = v_{\bar{t}t} - v_{\bar{x}x}, \tag{13}$$

bunda

$$v_{\bar{t}t} = \left(v(x, t+\tau) - 2v(x,t) + v(x, t-\tau)\right) / \tau^2 .$$

a) shablonda:

$$L_{h\tau} v = v_{\bar{t}t} - \hat{v}_{\bar{x}x}. \tag{14}$$

To`qqiznuqtali shablonda (g rasm) ayirmali operatorlarning ikkiparametrli oilasini yozish mumkin

$$L_{h\tau}^{(\sigma_1,\sigma_2)} v = v_{\bar{t}t} - \left(\sigma_1 \hat{v}_{\bar{x}x} + (1-\sigma_1-\sigma_2) v_{\bar{x}x} + \sigma_2 \check{v}_{\bar{x}x}\right). \tag{15}$$

(15) dan $\sigma_1 = \sigma_2 = 0$ bo`lganda (13), $\sigma_2 = 0, \sigma_1 = 1$ bo`lganda esa (14) kelib chiqadi.

(13), (14), (15) ayirmali operatorlar $O\left(h^2 + \tau^2\right)$ approksimatsiya tartibiga ega.

1.3 Approksimatsiya, korrektlik, turg`unlik, yaqinlashish va ular o`rtasida bog`lanish.

1.3.1 To`rda approksimatsiya xatoligi

Biz xozirgacha lokal ayirmali approksimatsiyani qaradik. Odatda to`rda ayirmali approksimatsiya tartibini baholash talab qilinadi.

ω_h - $\{x = (x_1, x_2, \ldots, x_p)\}$ to`r funktsiyalarning biror $G$ Evklid fazosidagi to`r, H_h - ω_h da berilgan to`r funktsiyalarning chiziqli fazosi, $H_0$ - $v(x)$ silliq funktsiyalar fazosi bo`lsin. Faraz qilaylik, 1) ixtiyoriy $u \in H_0$ uchun $\Re_h u = u_h \in H_h$ bo`ladigan $\Re_h$ operator mavjud, 2) $\|\cdot\|_h$ va $\|\cdot\|_0$ normalar quyidagicha bo`lsin, ya`ni

$$\lim_{|h|\to 0} \|\Re_h u\|_h = \|u\|_0,$$

bunda $|h|$ - h vektorning normasi.

H_0 da berilgan qandaydir L operatorni va ω_h da berilgan v_h to`r funktsiyani $L_h v_h$ to`r funktsiyaga akslantiruvchi L_h operatorni qaraymiz (ya`ni $H_h$ dan $H_h$ ga ta`sir qiluvchi).

L operatorni L_h ayirmali operator bilan approksimatsiyalash xatoligi deb

$$\psi_h = L_h v_h - (Lv)_h,$$

to`r funktsiyaga aytiladi, bunda $v_h = \Re_h v$, $(Lv)_h = \Re_h (Lv)$, v - H_0 dagi ixtiyoriy funktsiya (vektor, element).

$|h| \to 0$ da $\|\psi_h\|_h \to 0$ intilsa L differentsial operatorni L_h ayirmali operator approksimatsiyalaydi deymiz.

$$\|\psi_h\|_h = \|L_h v_h - (Lv)_h\|_h = O\left(|h|^m\right), \tag{1}$$

yoki

$$\left\| L_h v_h - (Lv)_h \right\|_h \le M \cdot |h|^m$$

bo`lsa $m > 0$ tartib bilan $L$ differentsial operatorni $L_h$ ayirmali operatori approksimatsiyalaydi deb ataymiz, bunda $M$ - $|h|$ dan bog`liq bo`lmagan musbat o`zgarmas son.

$\Re_h$ opeartorni tanlashga misollar:

1) agar $v(x)$ - uzluksiz funktsiya bo`lsa, u holda

$$v_h = \Re_h v(x) = v(x), \quad x \in \omega_h ;$$

2) $$v_h = \Re_h v(x) = \frac{1}{2h}\int_{x-h}^{x+h} v(t)dt = \frac{1}{2}\int_{-1}^{1} v(x+sh)ds ,$$

bunda $v(x)$ - integral funktsiya va h.k.

<u>1 eslatma</u>. Agar $h = (h_1, h_2, ..., h_p)$ - vektor bo`lsa, $|h|$ ni $|h| = \left(h_1^2 + h_2^2 + ... + h_p^2\right)^{1/2}$ uzunlik deb tushunish mumkin. $\alpha = 1,2,..., p$ tartib bilan turli $h_\alpha$ bo`yicha approksimatsiya qilish mumkin. U holda (16) o`rniga

$$\left\| L_h v_h - (Lv)_h \right\|_h \le M \sum_{\alpha=1}^{p} h_\alpha^{m_\alpha} \text{, bunda } m_\alpha > 0 .$$

$m_1, m_2, ..., m_p$ lar orasida eng kichik sonni olamiz va uni m bilan belgilab (1) baholashni olamiz.

1. Agar ω_h notekis to`r, ya`ni $h = (h_1, h_2, ..., h_n)$ bo`lsa, misol uchun $|h| = \max\limits_{1 \le i \le n} h_i$ yoki o`rta kvadratik qiymat $|h|$ ni olish mumkin, bunda n - tugunlar soni.

<u>Misol</u>. *Notekis to`rda ayirmali approksimatsiya*. $0 \le x \le 1$ kesmada berilgan $H_0 = C^{(4)}[0,1]$ funktsiyalar fazosida $Lv = d^2 v / dx^2$ ni qaraymiz. Quyidagi to`rni olamiz

$$\hat{\bar{\omega}}_h = \{x_i , i = 0,1,..., n , x_0 = 0 , x_n = 1\}.$$

Lv operator (x_{i-1}, x_i, x_{i+1}) noregulyar shablonda x_i tugunda aniqlangan

$$(L_h v)_i = \frac{1}{\bar{h}_i}\left[\frac{v_{i+1} - v_i}{h_{i+1}} - \frac{v_i - v_{i-1}}{h_i}\right], \quad v_i = v(x_i), \quad \bar{h}_i = 0,5(h_i + h_{i+1}),$$

ayirmali operatorga mos keladi. Quyidagi belgilashlarni kiritamiz

$$v_{\bar{x},i} = \frac{v_i - v_{i-1}}{h_i}, \quad v_{x,i} = v_{\bar{x},i+1} = \frac{v_{i+1} - v_i}{h_{i+1}}, \quad v_{\hat{x},i} = \frac{v_{i+1} - v_i}{\bar{h}_i} .$$

$L_h v$ operatorni quyidagi ko`rinishda yozish mumkin

$$(L_h v)_i = v_{\bar{x}\hat{x},i} = v_{\bar{x}\hat{x}} .$$

Approksimatsiyaning lokal xatoligi

$$\psi_i = (L_h v)_i - (Lv)_i = \frac{h_{i+1} - h_i}{3} v_i''' + O(h_i^2)$$

ga teng.

Demak $L_h v$ opeator to`r normada

$$\|\psi\|_C = \max_{1 \le i \le n-1} |\psi_i| = O(h), \quad h = \max_{1 \le i \le n-1} h_i$$

birinchi tartibli approksimatsiyaga ega.

L_2 to`r normada quyidagicha

$$\|\psi\| = \left(\sum_{i=1}^{n-1} \hbar_i \psi_i^2 \right)^{1/2} = O(h)$$

birinchi tartibli approksimatsiyani ham olishimiz mumkin.

Biroq

$$\|\psi\|_{(-1)} = \left[\sum_{i=1}^{n-1} h_i \left(\sum_{k=1}^{i} \hbar_k \psi_k \right)^2 \right]^{1/2}$$

normada ψ ikkinchi tartibga ega, ya`ni

$$\|\psi\|_{(-1)} = O(h^2), \text{ bunda } h = \max_{1 \le i \le n} h_i .$$

Bu tasdiqni isbotlaymiz. ψ ni

$$\psi_i = \frac{h_{i+1}^2 - h_i^2}{6 \hbar_i} v_i''' + O(\bar{h}_i^2)$$

ko`rinishda yozamiz.

$v_i''' = v_{i+1}''' + O(h_{i+1})$ ni inobatga olib

$$\psi_i = \frac{h_{i+1}^2 v_{i+1}''' - h_i^2 v_i'''}{6 \hbar_i} + \psi_i^* = \overset{\circ}{\psi}_i + \psi_i^* ,$$

topamiz, bu erda $\psi_i^* = O(h^2)$ ixtiyoriy normada.

$\overset{\circ}{\psi}_i$ bosh had divergent ko`rinishga ega. SHuning uchun

$$S_i = \sum_{k=1}^{i} h_k \overset{\circ}{\psi}_k = \sum_{k=1}^{i} \left(h_{k+1}^2 v_{k+1}''' - h_k^2 v_k''' \right) / 6 = \left(h_{i+1}^2 v_{i+1}''' - h_1^2 v_1''' \right) / 6 .$$

Bundan $\left|S_i\right| \le Mh^2$ ekanligi ko`rinib turibdi va haqiqatdan

$$\left\|\overset{\circ}{\psi}\right\|_{(-1)} = \left(\sum_{i=1}^{n-1} h_i S_i^2\right)^{1/2} = O(h^2) .$$

Bundan

$$\left\|\psi\right\|_{(-1)} \le \left\|\overset{\circ}{\psi}\right\|_{(-1)} + \left\|\psi^*\right\|_{(-1)} \le Mh^2 ,$$

ya`ni $\|\cdot\|_{(-1)}$ normada approksimatsiya xatoligi ikkinchi tartibga ega.

$y(x, t) = y_{h\tau}(x,t)$ to`r funktsiyani

$$\omega_{h\tau} = \omega_h \times \omega_\tau = \{(x,t), \quad x \in \omega_h , \ t \in \omega_\tau\}$$

to`rda aniqlaymiz.

U $x \in \omega_h$ argumentning funktsiyasi bo`lib $\|\cdot\|_h$ norma bilan $H_h$ fazoning vektori hisoblanadi. $\omega_{h\tau}$ to`rda $y(x,t)$ ni baholash uchun odatda

$$\|y\|_{h\tau} = \max_{t\in\omega_\tau} \|y(t)\|_h$$

normadan yoki quyidagilarning biridan foydalaniladi

$$\|y\|_{h\tau} = \sum_{t\in\omega_\tau} \tau \|y(t)\|_h , \quad \|y\|_{h\tau} = \left[\sum_{t\in\omega_\tau} \tau \|y(t)\|_h^2\right]^{1/2} .$$

$L_{h\tau} v_{h\tau}$ - Lu $(u = u(x,t))$ opeatorning ayirmali approksimatsiyasi bo`lsin. $L_{h\tau}$ operator $\omega_{h\tau}$ to`rda berilgan $v_{h\tau}(x,t)$ to`r funktsiyalarda aniqlangan. $v(x,t) \in H_0$ bo`lsin. Agar $v(x,t)$ t bo`yicha uzluksiz bo`lsa, barcha $t \in \omega_\tau$ lar uchun $v_{h\tau}(x,t) = v_h(x,t)$ bo`lishi mumkin. SHunday qilib, $\omega_{h\tau}$ to`rda berilgan $v_{h\tau}(x,t)$ va approksimatsiya xatoligini aniqlash uchun

$$\psi_{h\tau}(x,t) = L_{h\tau} v_{h\tau}(x,t) - (Lv)_{h\tau}(x,t), \quad (x,t) \in \omega_{h\tau} .$$

Bu erda $v_h(x,t) = \Re_h v(x,t)$.

L ni $L_{h\tau}$ x bo`yicha $m > 0$ va $t$ bo`yicha $l > 0$ tartib bilan approksimatsiya qiladi deymiz, agar $v(x,t)$ etarli silliq funktsiyalar sinfida

$$\|\psi_{h\tau}(x,t)\|_{h\tau} = O\left(|h|^m + \tau^l\right) \text{ yoki } \|\psi_{h\tau}\|_{h\tau} \le M\left(|h|^m + \tau^l\right)$$

baholash bajarilsa, bunda M - $|h|$ va l dan bog`liq bo`lmagan musbat o`zgarmas.

1.3.2 Sxemalar yaqinlashishi va aniqligi

Chekli to`rda biror masalani taqribiy echishda dastlab quyidagicha muloxazaga ega bo`lish kerak, ya`ni bu usul yordamida masala echilaganda masalaning aniq echimiga qanday aniqlikda yaqinlashishi mumkin. SHuning uchun ayirmali sxemalarning yaqinlashishi va aniqligi to`g`risidagi savolni qarab o`tish kerak.

Γ chegarali G sohada quyidagi chiziqli differentsial tenglama echimini topish talab qilingan bo`lsin

$$Lu = f(x), \quad x \in G . \tag{2}$$

Echim quyidagi qo`shimcha (chegaraviy va boshlang`ich) shartni qanoatlantirsin

$$lu = \mu(x), \quad x \in \Gamma , \tag{3}$$

bunda $f(x), \mu(x)$ - berilgan funktsiyalar, l - chiziqli differentsial operator.

$\overline{G}$ soha to`r bilan almashtiriladi.

h - to`r tugunlarining joylashish zichligini xarakterlaydigan vektor parametr bo`lsin, γ_h - chegaraviy tugunlar to`plami.

(2), (3) masalaga quyidagi ayirmali masalani mos qo`yamiz

$$\begin{aligned} L_h y_h &= \varphi_h, \quad x \in \omega_h, \\ l_h y_h &= \chi_h, \quad x \in \gamma_h, \end{aligned} \tag{4}$$

bunda $\varphi_h(x)$, $\chi_h(x)$ - ma`lum to`r funktsiyalar, L_h, l_h - $x \in \overline{\omega}_h = \omega_h + \gamma_h$ uchun berilgan to`r funktsiyalarga ta`sir qiluvchi operatorlar.

h ni o`zgartirib $\{y_h\}$ echimlar oilasini olamiz. SHunday qilib turli h lar uchun (4) ayirmali masalalar oilasi qaralishi kelib chiqadi. Bu (4) ayirmali masalalar oilasini ayirmali sxemalar deb ataymiz.

(2), (3) masalaning yechimiga, $h(\varepsilon)$ qadamni tanlashdan bog`liq ixtiyoriy berilgan $\varepsilon > 0$ aniqlikda (4) masalaning y_h echimi yaqinlashishini tushuntirish uchun y_h va $u(x)$ larni taqqoslash zarur.

Bu taqqoslashni H_h to`r funktsiyalar fazosida o`tkazamiz. u_h - ω_h to`rda $u(x)$ ning qiymati bo`lsin, bundan $u_h \in H_h$. Ayirmali sxema xatoligi

$$z_h = y_h - u_h$$

ni qaraymiz.

z_h uchun shartni yozamiz. $y_h = z_h + u_h$ ni (4) ga qo`yib $z_h$ uchun (4) ga o`xshash quyidagi masalani olamiz

$$
\begin{aligned}
&L_h z_h = \psi_h, \quad x \in \omega_h, \\
&l_h z_h = \nu_h, \quad x \in \gamma_h,
\end{aligned}
\tag{5}
$$

bunda ψ_h va ν_h - tafovutlar, ular $\psi_h = \varphi_h - L_h u_h, \quad \nu_h = \chi_h - l_h u_h$ teng.

(5) ning o`ng tomonlari (2) tenglamani (4) ayirmali tenglama bilan va (3) qo`shimcha shartlarni $L_h y_h = \chi_h$ ayirmali shart bilan approksimatsiyalashdagi xatolik deyiladi. Qisqasi ψ_h - (2) tenglamaning $u(x)$ echimida $L_h y_h = \varphi_h$ tenglama uchun approksimatsiya xatoligi, ν_h - (2), (3) masalani echishda $l_h y_h = \chi_h$ approksimatsiya xatoligi deymiz.

Sxemaning z_h xatoligi va ψ_h, ν_h approksimatsiya xatoliklarini baholash uchun, mos ravishda $\|\cdot\|_{(1h)}$, $\|\cdot\|_{(2h)}$, $\|\cdot\|_{(3h)}$ to`r funktsiyalar normalarini kiritamiz.

(4) ayirmali masala yechimi (2), (3) masala echimiga yaqinlashadi ((4) sxema yaqinlashadi) deymiz, agar

$$|h| \to 0 \text{ da } \|z_h\|_{(1h)} = \|y_h - u_h\|_{(1h)} \to 0,$$

yoki

$$\|z_h\|_{(1h)} = \|\rho(|h|)\|,$$

bunda

$$h \to 0 \text{ da } \rho(|h|) \to 0.$$

(4) ayirmali sxema $O(|h|^m)$ tezlik bilan yaqinlashadi yoki m -nchi tartibli aniqlikga ega deyiladi, agar etarlicha $|h| \le h_0$ da

$$\|z_h\|_{(1h)} = \|y_h - u_h\|_{(1h)} \le M|h|^m,$$

tengsizlik bajarilsa, bunda $M > 0$ - $|h|$ dan bog`liq bo`lmagan o`zgarmas, $m > 0$.

Quyidagicha savol tug`iladi, ya`ni sxema aniqligining tartibi approksimatsiya tartibidan bog`liqmiq $z_h = y_h - u_h$ xatolik $\psi_h$ (va $\nu_h$) o`ng qismli (5) masalaning echimi. Approksimatsiya tartibi bilan aniqlik tartibi o`rtasidagi aloqa ayirmali masala echimining o`ng tomondan bog`liqligi bilan xarakterlanadi. Agar $z_h$ $\psi_h$ va $\nu_h$ lardan uzluksiz bog`liq bo`lsa, aniqlik tartibi approksimatsiya tartibi bilan mos tushadi.

1.3.3 Ayirmali sxemalar turg`unligi

<u>Misollar</u>. Tenglamalarning o`ng tomonlarini, chegaraviy va boshlang`ich ma`lumotlarni chekli approksimatsiya qilishda biz bundan keyin bir atama bilan – muayyan xatolik bilan berilgan boshlang`ich qiymatlar deb ataymiz. Algebraik tenglamalar sistemasini sonli echish jarayonida ham xatolik ro`y beradi.

Boshlang`ich ma`lumotlardan bog`liq kichik xatoliklar hisoblash jarayonida oshmasligi va izlanayotgan echimni olishni buzmasligi sxemadan talab qilinadi.

Agarda boshlang`ich xatoliklar hisoblash jarayonida oshib ketsa sxemalarga turg`unmas sxemalar deyiladi va amalda ulardan foydalanib bo`lmaydi.

Misollar keltiramiz.

1 misol. *Turg`un sxema*.

$$u' = -\alpha u, \quad x > 0, \quad u(0) = u_0, \quad \alpha > 0 \tag{6}$$

bo`lsin.

Masalaning aniq echimi quyidagicha

$$u(x) = u_0 e^{-\alpha x}.$$

Bu echim uchun $\alpha > 0$ da $|u(x)| < |u_0|$ va haqiqatdan, $u(x)$ u_0 dan uzuluksiz bog`liq.

(6) masalani $\omega_h = \{x_i = ih, \quad i = 0,1,...\}$ tekis to`rda ayirmali masala approksimatsiyalaydi

$$(y_i - y_{i-1})/h + \alpha y_i = 0, \quad y_0 = u_0, \quad i = 1,2,...$$

yoki

$$y_i = sy_{i-1}, \quad s = \frac{1}{1+\alpha h}, \quad y_0 = u_0.$$

Bundan

$$y_i = s^i y_0$$

kelib chiqadi.

$\bar{x}$ fiksirlangan nuqtani qaraymiz va h qadamlar ketma-ketligini shunday tanlaymizki, $\bar{x}$ hamma vaqt $\bar{x} = i_0 h$ tugun nuqta bo`lsin. U holda $h \to 0$ da to`rni kichiklashtirganda tanlangan nuqta $\bar{x}$ ga mos keluvchi i_0 nomer cheksiz o`sadi. SHu nuqtada y ning qiymatini hisoblaymiz

$$y(\bar{x}) = y_{i_0} = s^{i_0} y_0.$$

$\alpha > 0$ va ixtiyoriy h da $|s| < 1$ bo`lganidan, ixtiyoriy $h$ da $|y(\bar{x})| \le s^{i_0}|y_0| < |y(0)|$ bo`ladi.

Oxirgi tengsizlikdan ko`rinib turibdiki, (6) ayirmali masala echimi boshlang`ich qiymatlardan uzluksiz bog`liq.

2 misol. Turg`unmas sxema. (6) masala uchun quyidagi sxemani qaraymiz

$$\sigma \frac{y_i - y_{i-1}}{h} + (1-\sigma)\frac{y_{i+1} - y_i}{h} + \alpha y_i = 0, \qquad (7)$$
$$y_0 = u_0, \quad y_1 = \bar{u}_0, \quad i = 1,2,\ldots,$$

bu erda $\sigma > 1$ - sonli parametr.

Sxema uch nuqtali bo`lganligi uchun, $y_0$ dan tashqari $y_1$ ning ham berilishi talab qilinadi. Agar $\bar{u}_0 = (1-\alpha h)u_0$ deb olinsa, u holda $\bar{u}_0 - u(h) = O(h^2)$ bo`ladi. (6) masalaning ayirmali echimini $y_i = s^i$ ko`rinishda izlaymiz. U holda (7) dan

$$(\sigma - 1)s^2 - (2\sigma - 1 + \alpha h)s + \sigma = 0,$$

kelib chiqadi. Bu tenglamaning 2 ta turli echimlari mavjud

$$s_{1,2} = \frac{2\sigma - 1 + \alpha h \pm \sqrt{(2\sigma - 1 + \alpha h)^2 - 4\sigma(\sigma - 1)}}{2(\sigma - 1)} =$$
$$= \frac{2\sigma - 1 + \alpha h \pm \sqrt{1 + 2(2\sigma - 1)\alpha h + \alpha^2 h^2}}{2(\sigma - 1)}.$$

(6) ning umumiy echimi quyidagi ko`rinishda

$$y_i = As_1^i + Bs_2^i. \qquad (8)$$

$i = 0, i = 1$ larni qo`yib va $y_0 = u_0, \quad y_1 = \bar{u}_0$ larni hisobga olib $A$ va $B$ o`zgarmaslarni topamiz

$$A = \frac{\bar{u}_0 - s_2 u_0}{s_1 - s_2}, \quad B = \frac{s_1 u_0 - \bar{u}_0}{s_1 - s_2}.$$

$\sigma > \sigma - 1 > 0$ dan, $s_1 s_2 > 1$ bo`ladi. Ixtiyoriy $\alpha h$ da $s_2 < 1$ bo`lishini ko`rsatamiz. O`z navbatida $\sigma > 1$ da

$$2(\sigma - 1) - \left(2\sigma - 1 + \alpha h - \sqrt{1 + 2(2\sigma - 1)\alpha h + \alpha^2 h^2}\right) =$$
$$= \sqrt{1 + 2(2\sigma - 1)\alpha h + \alpha^2 h^2} - (1 + \alpha h) > 0.$$

Ixtiyoriy αh ning qiymatida $s_1 > 1$ bo`lishidan, $s_1 s_2 > 1$ kelib chiqadi.

Agar $A \neq 0$ bo`lganda $y_i = As_1^i + Bs_2^i$ formuladan $i \to \infty$ da $y_i \to \infty$ bo`ladi. $y_1 = \bar{u}_0$ ni shunday tanlash kerakki, $A = 0$ bo`lsin. Buning uchun $\bar{u}_0 = s_2 u_0$ deb olish kifoya. $s_1^i$ echim atrofidagi xatolikdan hisoblash jarayonida qochib bo`lmaydi hamda turg`unmas sxemaga keladi.

h fiksirlangan nuqtada bu sxemada $x_i = ih$ oshishi bilan echimning oshishi kelib chiqadi. h ning kamayishi $\bar{x}_i = i_0 h$ fiksirlangan nuqtada xatolikning oshishga olib keladi, ya`ni $h$ ning kamayishi bilan $i_0 = \bar{x}/h$ oshadi. $h \to 0$ da boshlang`ich qiymatlarning kam o`zgarishi ixtiyoriy $\bar{x}$ fiksirlangan nuqtada masala echimining cheksiz o`sshiga olib keladi.

1.3.4 Ayirmali masala korrektligi

y_h biror ayirmali masalaning echimi, φ_h esa boshlang`ich qiymatlari bo`lsin. Ular h parametrdan bog`liq. $h$ ni o`zgartirib $\{\varphi_h\}$ boshang`ich qiymatlarga mos $\{y_h\}$ echimlar ketma-ketligini olamiz. Shunday qilib, nafaqat bir ayirmali masalani, balki $h$ parametrdan bog`liq masalalar oilasini qaraymiz. $|h| \to 0$ da ayirmali masalalar oilasi uchun korrektlik tushunchasi kiritiladi.

Barcha etarlicha kichik $|h| \le h_0$ larda masala korrekt deyiladi, agar:

1) Qandaydir mumkin bo`lgan oiladan barcha $\varphi_h$ boshlang`ich qiymatlar uchun ayirmali masala echimi y_h mavjud va yagona bo`lsa;
2) y_h echim φ_h dan uzluksiz bog`liq hamda bu bog`liqlik h ga nisbatan tekis bo`lsa.

2-nchi shart yanada aniqroq shuni bildiradiki, etarlicha kichik $|h| \le h_0$ da h dan bog`liq bo`lmagan $M > 0$ o`zgarmas mavjud bo`lib

$$\left\|\tilde{y}_h - y_h\right\|_{(1h)} \le M \left\|\tilde{\varphi}_h - \varphi_h\right\|_{(2h)} \tag{9}$$

tengsizlik bajariladi, bunda $\tilde{y}_h$ - $\tilde{\varphi}_h$ boshlang`ich qiymatli masala echimi, $\|\cdot\|_{(1h)}$ va $\|\cdot\|_{(2h)}$ lar esa $\omega_h$ to`rda berilgan to`r funktsiya to`plamidagi normalar.

(8) tengsizlik bilan ifodalangan ayirmali masala echimining boshlang`ich qiymatlardan uzluksiz bog`liqlik xossasiga boshlang`ich qiymat bo`yicha sxema turg`unligi deyiladi.

1.4 Ikkinchi tartibli ODT uchun chegaraviy masalalarni o`q otish va chekli ayirmalar usuli bilan yechish. Progonka usulining turg`unligi

Chegaraviy masalalarni echishning sonli usullarini qaraymiz. Ularni ikkita guruiga ajratish mumkin:

1) Chegaraviy masala echimini ketma-ket Koshi masalalarini echishga keltirish;

2) Chekli ayirmalar usullarini qo`llash.

Birinchi gurui usullariga, xususan, o`q otish usuli kiradi.

1.4.1 O`q otish usuli

[0,1] kesmada ikkinchi hosilaga nisbatan echilgan ikkinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalani qaraymiz:

$$y'' = f(x, y, y'). \tag{1}$$

Iar qanday kesmani

$$t = \frac{x - a}{b - a}$$

almashtirish yordamidamojno [0,1] kesmaga keltirish mumkin.

CHegaraviy shartni quyidagi oddiy ko`rinishda olamiz

$$y(0) = y_0, \quad y(1) = y_1 . \tag{2}$$

O`q otish usulining moiiyati (1), (2) chegaraviy masalani echishni (1) tenglama uchun

$$y(0) = y_0, \qquad y'(0) = k = tg\,\alpha , \tag{3}$$



boshlang`ich shartli masala echimiga keltirishdan iborat, bunda $\alpha$ - parametr $x = 0$ nuqtada integral chiziqga o`tkazilgan urinmaning $0x$ o`qi bilan hosil qilgan burchagidir.

(1), (3) Koshi masalasini α dan boғliq deb hisoblaylik, ya`ni *y=y(x,α)*, shunday *y=y(x,α_*)* integral chiziqni izlaymizki, u *(0,y_0)* nuqtadan chiqib

$(1, y_1)$ nuqtaga tushsin.

SHunday qilib, agar $\alpha=\alpha_*$ bo`lsa, u holda $y(x,\alpha)$ Koshi masalasi echimi $y(x)$ chegaraviy masala echimi bilan ustma-ust tushadi. $x=1$ da (2) ni hisobga olib $y(1,\alpha)=y_1$ ni hosil qilamiz

$$y(1,\alpha)-y_1=0. \tag{4}$$

Demak $F(\alpha)=0$ ko`rinishdagi tenglamani hosil qildik, bunda $F(\alpha)=y(1,\alpha)-y_1$.

(4) tenglamani echish uchun chiziqlimas tenglamlarni yechishning birorta usulini qo`llash mumkin.

1.4.2 Chekli ayirmalar usuli

Quyidagi

$$Lu = u'' + p(x)u' + q(x)u = f(x), \tag{5}$$

tenglamaning

$$\begin{aligned} l_0 y &= c_1 y(a) + c_2 y'(a) = c, \\ l_1 y &= d_1 y(b) + d_2 y'(b) = d. \end{aligned} \tag{6}$$

shartlarni qanoatlantiruvchi echimini topish talab etilgan bo`lsin.

Masalani sonli yechish izlanayotgan $u(x)$ haqiqiy echimning $x_0, x_1, x_2,\dots, x_n$ nuqtalardagi $y_0, y_1,\dots y_n$ taqribiy qiymatlarini topishdan iborat. x_i, nuqtalar to`r tugunlari deb ataladi. Bir-biridan bir xil uzoqlikda joylashgan tugunlar sistemasidan hosil bo`lgan quyidagi tekis to`rni qo`llaymiz

$$x_i=x_0+ih, \qquad i=0,1,2,\dots,n.$$

Bundan

$$x_0=a,\ \ x_n=b,\ \ h=(b-a)/n.$$

h – kattalik to`r qadami.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz

$$p(x_i)=p_i, \qquad q(x_i)=q_i, \qquad f(x_i)=f_i,$$

$$y(x_i)=y_i, \qquad y'(x_i)=y_i', \qquad y''(x_i)=y_i''.$$

$y'(x_i)$ va $y''(x_i)$ larni har bir ichki tugunda ayirmali markaziy hosilalar yordamida approksimatsiyalaymiz

$$y'(x_i)=\frac{y_{i+1}-y_{i-1}}{2h}+O\left(h^2\right),\qquad y''(x_i)=\frac{y_{i+1}-2y_i+y_{i-1}}{h^2}+O\left(h^2\right).$$

Kesma oxirilarida bir tomonlama ayirmali iosilalarni qo`llaymiz

$$y_0'=\frac{y_1-y_0}{h}+O(h),\qquad y_n'=\frac{y_n-y_{n-1}}{h}+O(h).$$

Bu formulalarni qo`llab (5), (6) berilgan masala ayirmali approksimatsiyasini hosil qilamiz:

$$\begin{cases}\dfrac{y_{i+1}-2y_i+y_{i-1}}{h^2}+p_i\dfrac{y_{i+1}-y_{i-1}}{2h}+q_i\,y_i=f_i, & i=\overline{1,n-1},\\[2mm] c_1\,y_0+c_2\dfrac{y_1-y_0}{h}=c,\\[2mm] d_1y_n+d_2\dfrac{y_n-y_{n-1}}{h}=d.\end{cases}\tag{7}$$

Izlanayotgan echimning y_0, y_1,..., y_n taqribiy qiymatlarini topish uchun (7) *n+1* noma`lumli *n+1* ta chiziqli tenglamalar sistemasini echish zarur. Bu sistemani CHATS ni echishning biron bir standart usullari yordamida echish mumkin. Ammo (7) tenglamalar koeffitsientlaridan tuzilgan matritsa uch dioganallidir, shuning uchun uni echishda *progonka usuli* deb ataluvchi maxsus usulni qo`llaymiz.

(7) sistemani quyidagi tarzda yozamiz

$$\begin{cases}\beta_0y_0+\gamma_0y_1=\varphi_0\\ \alpha_i\,y_{i-1}+\beta_iy_i+\gamma_iy_{i+1}=\varphi_i, & i=1,2,\ldots,n-1,\\ \alpha_ny_{n-1}+\beta_ny_n=\varphi_n,\end{cases}\tag{8}$$

bunda $\beta_0=c_1h-c_2$, $\gamma_0=c_2$, $\gamma_0=s_2$, $\varphi_0=hs$, $\varphi_I=f_ih^2$,

$$\alpha_i=1-\frac{1}{2}p_ih,\qquad \beta_i=-2+q_ih^2,\qquad \gamma_i=1+\frac{p_ih}{2},\quad i=1,2,\ldots,n-1,$$

$$\alpha_n=-d_2,\qquad \beta_n=hd_1+d_2,\quad \varphi_n=hd.$$

(8) sistema echimini quyidagi ko`rinishda izlaymiz

$$y_i=u_i+v_iy_{i+1},\quad i=0,1,\ldots,n-1,\tag{9}$$

bu erada u_i, v_i, $i=0,1,\ldots,(n-1)$ lar *progonka koeffitsientlari* deb ataladi.

(9) ni (8) ga qo`yib u_i, v_i lar uchun quyidagi rekkurent formulani hosil qilamiz:

$$v_i = -\frac{\gamma_i}{\beta_i + \alpha_i v_{i-1}}, \qquad u_i = \frac{\varphi_i - \alpha_i u_{i-1}}{\beta_i + \alpha_i v_{i-1}}, \qquad i = \overline{1, n}. \tag{10}$$

Hisoblash sxemasini bir jinsli qilish uchun

$$\alpha_0=0, \qquad \gamma_n=0,$$

deb olamiz.

Progonka usuli ikki bosqichdan iborat.

1) *Progonkaning to`g`ri yo`li.* (10) bo`yicha *i* indes o`zgarishining o`sib borish tartibida ketma-ket u_i, v_i koeffitsientlar

$$v_0 = -\frac{\gamma_0}{\beta_0}, \qquad u_0 = \frac{\varphi_0}{\beta_0},$$

qiymatlar yordamida hisoblanadi.

2) *Progonkaning teskari yo`li.* (9) formula bo`yicha *i* indeksning kamayish tartibida ketma-ket $y_n, y_{n-1},\ldots,y_0$ kattaliklar aniqlanadi.

SHunday qilib $\gamma_n=0$, u holda $v_n=0$ va $y_n=u_n$, ya`ni progonkaning to`ғri yo`lida v_i , u_i kattaliklar yordami bilan y_n echim hisoblanadi.

SHunday qilib, progonka usuli bilan (9) sistemaning aniq echimini topa olamiz, bu esa (5), (6) chegaraviy masala echimi xatoligi faqat berilgan masala ayirmali approksimatsiya xatoligi bilan aniqlanishini va xatolik *O(h)* ga teng ekanligini ko`rsatadi.

(9) sistemani

$$\begin{aligned} &\alpha_i y_{i-1} - \beta_i y_i + \gamma_i y_{i+1} = \varphi_i, \quad i = \overline{1, n-1}, \\ &y_0 = \chi_1 y_1 + \mu_1, \quad y_n = \chi_2 y_{n-1} + \mu_2, \end{aligned} \tag{11}$$

ko`rinishda yozamiz, bu erda

$$\chi_1 = -\frac{\gamma_0}{\beta_0}, \quad \mu_1 = \frac{\varphi_0}{\beta_0}, \quad \chi_2 = -\frac{\alpha_n}{\beta_n}, \quad \mu_1 = \frac{\varphi_n}{\beta_n}, \quad \beta_i = 2 - q_i h^2,$$

$\alpha_i \neq 0, \quad \beta_i \neq 0$.

U holda (10) formula quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi

$$v_i = \frac{\gamma_i}{\beta_i - \alpha_i v_{i-1}}, \quad u_i = \frac{\alpha_i u_{i-1} - \varphi_i}{\beta_i - \alpha_i v_{i-1}}. \tag{12}$$

$x = b$ nuqtada (ya`ni $i = n$ da) y_n

$$\begin{cases} y_n = \chi_2 y_{n-1} + \mu_2 \\ y_{n-1} = u_{n-1} + v_{n-1} y_n, \end{cases}$$

sistemadan y_n

$$y_n = \chi_2 (u_{n-1} + v_{n-1} y_n) + \mu_2, \qquad (1 - \chi_2 v_{n-1}) y_n = \chi_2 u_{n-1} + \mu_2$$

$$y_n = \frac{\chi_2 u_{n-1} + \mu_2}{1 - \chi_2 v_{n-1}} \tag{13}$$

kabi aniqlanadi.

(12), (13) formulalar ma`noga ega bo`ladigan etarlilik shartlarini isbotlaymiz:

$$|\beta_i| \geq |\alpha_i| + |\gamma_i|, \quad i = \overline{1, n-1}, \quad |\chi_i| \leq 1, \quad i = 1,2, \quad |\chi_1| + |\chi_2| < 2. \tag{14}$$

Bu shartlarda $i = \overline{0, n-1}$ uchun $|v_i| \leq 1$ bo`lishini ko`rsatamiz.

$|v_{i-1}| \leq 1$ bo`lsin. Bundan $|v_i| \leq 1$ bo`lishini ko`rsatamiz. SHunday qilib $|v_0| = |\chi_1| \leq 1$, u holda bundan barcha $i = 1,2,..., n-1$ lar uchun $|v_i| \leq 1$ bo`lishligi kelib chiqadi.

(14) qo`llab quyidagi ayirmani baholaymiz

$$|\beta_i - \alpha_i v_{i-1}| - |\gamma_i| \geq |\beta_i| - |\alpha_i| \cdot |v_{i-1}| - |\gamma_i| \geq$$

$$\geq |\alpha_i| + |\gamma_i| - |\alpha_i| \cdot |v_{i-1}| - |\gamma_i| = |\alpha_i| - |\alpha_i| \cdot |v_{i-1}| = |\alpha_i| \cdot (1 - |v_{i-1}|) \geq 0 .$$

Bundan $|\beta_i - \alpha_i v_{i-1}| \geq |\gamma_i|$.

SHunday qilib $\gamma_i \neq 0$, u holda $|\beta_i - \alpha_i v_{i-1}| > 0$, ya`ni $|v_i| = \dfrac{|\gamma_i|}{|\beta_i - \alpha_i v_{i-1}|} \leq 1$.

Bundan ko`rinadiki agar $|v_{i-1}| < 1$ bo`lsa, u holda $|v_i| < 1$ bo`ladi. $|v_0| = |\chi_1| < 1$ da barcha $|v_i| < 1$ bo`ladi.

(10) ning maxrajini baholaymiz:

$$|1 - \chi_2 v_{n-1}| \geq 1 - |\chi_2| \cdot |v_{n-1}| \geq 1 - |\chi_2| > 0 \ ,$$

bundan $|\chi_2| < 1$ yoki $|v_{n-1}| < 1$ ($|\chi_1| < 1$ da), ya`ni $|1 - \chi_2 v_{n-1}| > 0$.

Agar $|\beta_{i_0}| > |\alpha_{i_0}| + |\gamma_{i_0}|$ hech bo`lmaganda bitta $i = i_0$ nuqtada bajarilsa, u holda barcha $i > i_0$ uchun $|v_i| < 1$ bajariladi va jumladan $i = n - 1$ da $|v_{n-1}| < 1$ ga ega bo`lamiz. Bu holda $|\chi_1| + |\chi_1| < 2$ shart ortiqcha hisoblanadi, chunki $|\chi_1| = 1$ va $|\chi_2| = 1$ da

$$|1 - \chi_2 v_{n-1}| \geq 1 - |\chi_2| \cdot |v_{n-1}| > 0$$

bo`ladi.

1.4.3 Turg`unlik, approksimatsiya, yaqinlashish

$$x \in G \text{ da } Lu = f(x), \ x \in \Gamma \quad \text{да} \quad lu = \mu(x) \tag{10}$$

uzluksiz masala berilgan bo`lsin va $\overline{\omega}_h = \varpi_h + \gamma_h$ to`rda uni quyidagi ayirmali masala approksimatsiya qilsin

$$x \in \omega_h \text{ da } L_h y_h = \varphi_h, \quad x \in \gamma_h \text{ da } l_h y_h = \tilde{\mu}_h . \tag{11}$$

$z_h = y_h - u_h$ xatolik uchun masala (bunda u_h - ω_h to`rda (10) masala echimining qiymatlari) quyidagi ko`rinishda bo`ladi

$$L_h z_h = \psi_h, \quad x \in \omega_h, \quad l_h z_h = \nu_h, \ x \in \gamma_h, \tag{12}$$

bu erda ψ_h, ν_h - tenglama va qo`shimcha shartlarning approksimatsiya xatoligi. (12) ning o`rninga

$$\tilde{L}_h z_h = \tilde{\psi}_h$$

ni yozamiz.

Agar $\widetilde{L}_h$ operator chiziqli va ayirmali sxema korrekt bo`lsa, (9) o`rniga quyidagiga ega bo`lamiz

$$\|z_h\|_{(1h)} \le M\|\widetilde{\psi}_h\|_{(2h)} \quad \text{yoki} \quad \|z_h\|_{(1h)} \le M\left(\|\psi_h\|_{(2h)} + \|\nu_h\|_{(3h)}\right). \tag{13}$$

Bu erdan ko`rinib turibdiki, agar sxema turg`un va masalani approksimatsiya qilsa, u holda yaqinlashuvchi bo`ladi (odatda "approksimatsiya va turg`unlikdan yaqinlashish kelib chiqadi" deyiladi), sxemaning aniqlik tartibi uning approksimatsiya tartibi bilan aniqlanadi.

YUqorida aytib o`tilganlardan shunday xulosa chiqadiki sxema yaqinlashishi va aniqlik tartibini o`rganish approksimatsiya xatoligi va turg`unligini o`rganishga olib keladi, ya`ni aprior baholash deb ataluvchi (13) ko`rinishdagi baholash olinadi.

II-Bob

Nochiziqli chegaraviy shartli bir o'lcho'vli issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasini sonli yechish.

2.1 Bir o`lchamli issiqlik o`tkazuvchanlik tenglamasini sonli yechish

2.1.1 Masalaning berilishi

Bir o`lchamli nostatsionar issiqlik o`tkazuvchanlik tenglamasi quyidagicha bo`ladi

$$c\rho\frac{\partial u}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x}\left(k\frac{\partial u}{\partial x}\right) + \overline{f}, \tag{1}$$

bunda $u = u(x,t)$ - temperatura, *s* – birlik massa issiqlik sig`imi, *ρ* - zichlik, *k* – issiqlik o`tkazuvchanlik koeffitsienti, $\bar{f}$ - issiqlik manbalari zichligi, ya`ni birlik vaqtda birlik uzunlikdan ajralib chiquvchi issiqlik. Agar $c = c(x,t,u)$, $k = k(x,t,u)$ bo`lsa tenglama kvazichiziqli deb ataladi. Agar *s*=const*, k*=const bo`lsa tenglama quyidagicha bo`ladi

$$\frac{\partial u}{\partial t} = a^2\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \tilde{f}, \quad a^2 = \frac{k}{\rho c}, \quad \tilde{f} = \frac{\bar{f}}{\rho c}, \tag{2}$$

bu erda a^2 - temperatura o`tkazuvchanlik koeffitsienti.

Umumiylikdan ajralmagan holda $a = 1$ deb hisoblash mumkin, u holda (2) dan quyidagini hosil qilamiz

$$\frac{\partial u}{\partial t} = \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + f. \tag{3}$$

Birinchi chegaraviy masala (I): $\overline{D} = \{0 \le x \le 1,\ 0 \le t \le T\}$ da uzluksiz bo`lgan quyidagi masalaning $u(x,t)$ yechimini topamiz

$$\frac{\partial u}{\partial t} = \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + f(x,t), \quad 0 < x < 1, 0 < t \le T,$$
$$u(x,0) = u_0(x), \quad 0 \le x \le 1,$$
$$u(0,t) = u_1(t), \quad u(1,t) = u_2(t), \quad 0 \le t \le T.$$

2.1.2 Olti nuqtali sxemalar oilasi

Quyidagi to`rni kiritamiz

$$\overline{\omega}_h = \{x_i = ih, \quad i = 0,1,\dots, I\}, \quad \omega_\tau = \{t_j = j\tau, \quad j = 0,1,\dots, J\}$$

va $\overline{D}$ to`rni

$$\overline{\omega}_{h\tau} = \overline{\omega}_h \times \omega_\tau = \{(ih, j\tau), \quad i = 0,1,\dots, I, \quad j = 0,1,\dots, J\}$$

ko`rinishda $h = 1/I$, $\tau = T/J$ qadamlar bilan kiritamiz, bunda $y_i^j$ – $\overline{\omega}_{h\tau}$ da aniqlangan bo`lib, *y* funktsiyaning (x_i, t_j) tugundagi qiymati.

Bir parametrli ayirmali sxemalar oilasini qaraymiz

$$\frac{y_i^{j+1} - y_i^j}{\tau} = \Lambda\left(\sigma y_i^{j+1} + (1-\sigma) y_i^j\right) + \varphi_i^j, \quad 0 < i < I, \quad 0 \le j < J, \tag{4}$$

bunda $\Lambda y_i^j = y_{\bar{x}x} = \dfrac{y_{i-1}^j - 2y_i^j + y_{i+1}^j}{h^2}$, σ – haqiqiy parametr.

(4) sxema ba`zan *vaznli sxema* deb ataladi.

CHegaraviy va boshlang`ich shartlar quyidagicha aniq approksimatsiyalanadi:

$$y_0^j = u_1^j, \quad y_I^j = u_2^j, \tag{5}$$

$$y_i^0 = y(x_i, 0) = u_0(x_i). \tag{6}$$

Bunda φ_i^j – (3) tenglama o`ng tarafi f ni approksimatsiyalovchi funktsiya, masalan

$$\varphi_i^j = f\left(x_i, t_{j+0,5}\right), \quad t_{j+0,5} = t_j + 0,5\tau .$$

(4)-(6) ni (II) ayirmali masala deb ataymiz.

(4) AS quyidagi olti nuqtali shablonda yozilgan

$$\left(x_{i\pm1}, t_{j+1}\right), \quad \left(x_i, t_{j+1}\right), \quad \left(x_{i\pm1}, t_j\right), \quad \left(x_i, t_j\right).$$

(4) tenglama *ichki tugunlar* deb ataluvchi $\left(x_i, t_{j+1}\right)$ $\quad i = 0,1, \ldots, I-1,$ $j + 1 = 1,\ldots, J$ tugunlarda echiladi. $\overline{\omega}_{h\tau}$ dagi barcha ichki tugunlar to`plamini $\omega_{h\tau} = \{(x_i, t_j), \ 1 \le i \le I-1, \ 1 \le j \le J\}$ ko`rinishida belgilaymiz.

(5), (6) boshlang`ich va chegaraviy shartlar $\overline{\omega}_{h\tau}$ ning chegaraviy nuqtalarida yoziladi. $t=t_j$ to`g`ri chiziqda yotuvchi $\overline{\omega}_{h\tau}$ to`r tugunlari odatda *qatlamlar* deb ataladi. (4) da y_i^j qiymatlar ikkita qatlamda yotadi va shuning uchun bunday sxemalar *ikki qatlamli* sxemalar deb ataladi.

$\sigma=0$ da (x_i,t_{j+1}), (x_i,t_j), $(x_{i\pm1},t_j)$ shablonda aniqlanuvchi to`rt nuqtali $\dfrac{y_i^{j+1} - y_i^j}{\tau} = \Lambda y_i^j + \varphi_i^j$ sxemani hosil qilamiz yoki uni quyidagicha yoza olamiz

$$y_i^{j+1} = (1 - 2\gamma) y_i^j + \gamma(y_{i-1}^j + y_{i+1}^j) + \tau\varphi_i^j, \quad \gamma = \frac{\tau}{h^2}. \tag{7}$$

$t=t_{j+1}$ qatlamning har bir nuqtasidagi y_i^{j+1} qiymat (7) formula yordamida $t=t_j$ qatlamdagi y_i^j qiymatlar orqali oshkor ko`rinishda ifodalanadi. SHunday qilib $t=0$ da $y_i^0 = u_0(x_i)$ berilsa, u holda (7) formula bo`yicha ketma-ket ixtiyoriy qatlamdagi *y* ning qiymatlarini aniqlay olamiz. (7) sxema *oshkor* sxema deb ataladi.

Agar $\sigma \neq 0$ bo`lsa, u holda (7) sxema *oshkormas ikki qatlamli sxema* deb ataladi. $\sigma \neq 0$ da y_i^{j+1} larni aniqlash uchun quyidagi chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi

$$y_0^{j+1} = u_i^{j+1}, \quad y_l^{j+1} = u_2^{j+1},$$

algebraik tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

$$\sigma \Lambda y_i^{j+1} - \frac{1}{\tau} y_i^{j+1} = -F_i^j, \tag{8}$$

$$F_i^j = \frac{1}{\tau} y_i^{j+1} + (1-\sigma)\Lambda y_i^{j+1} + \varphi_i^j,$$

$$i=1,\dots,l-1.$$

(8) ayirmali tenglama echimi progonka usuli bilan topiladi.

$\sigma = 1$ da *sof oshkormas sxemaga* ega bo`lamiz

$$\frac{y_i^{j+1} - y_i^j}{\tau} = \Lambda y_i^{j+1} + \varphi_i^j. \tag{9}$$

